

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XUSANOV BAXROM MENGDOVULOVICH**

**NIKEL(II) VA MIS(II) IONLARINI ANIQLASHNING  
SPEKTROFOTOMETRIK USULLARINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.02 – Analitik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

**Kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)  
по химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)  
on chemical sciences**

**Xusanov Baxrom Mengdovulovich**

Nikel(II) va mis(II) ionlarini aniqlashning spektrofotometrik usullarini ishlab  
chiqish..... 3

**Хусанов Бахром Менгдовулович**

Разработка спектрофотометрических методов определения ионов  
никеля(II) и меди(II)..... 21

**Khusanov Bakhrom Mengdovulovich**

Elaboration of spectrophotometric methods for the determination nickel(II) and  
copper(II) ions ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 44

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.12.2019.K.02.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT  
UNIVERSITETI**

**XUSANOV BAXROM MENGDOVULOVICH**

**NIKEL(II) VA MIS(II) IONLARINI ANIQLASHNING  
SPEKTROFOTOMETRIK USULLARINI ISHLAB CHIQISH**

**02.00.02 – Analitik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Samarqand – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PHD/K664 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdu.uz) va «ZiyoNET» Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** Turabov Nurmuxammad Turabovich  
kimyo fanlari nomzodi, professor

**Rasmiy opponentlar:** Abduraxmanov Ergashboy  
kimyo fanlari doktori, professor

Yaxshiyeva Zuxra Ziyatovna  
kimyo fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:** Toshkent farmatsevtika instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2019.K.02.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «25» oktabr soat 13<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 15-uy, Biokimyo instituti binosi, 2-qavat, 20 xona. Tel.: (+99866) 239-12-47; faks: (0366) 239-11-40; e-mail: devonxona@samdu.uz).

Dissertatsiya bilan Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (94 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15-uy. Tel.: (+99866) 239-11-51).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «14» oktabr kuni tarqatildi.  
(2024-yil «14.10» dagi № 8 raqamli reyestr bayonnomasi).



**A.M.Nasimov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
raisi, k.f.d., professor

**J.R.Uzoqov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
kotibi, k.f.d. (PHD)

**E.Abdurahmonov**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d.,  
professor.

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda ilm-fan, texnika, tibbiyot, atrof-muhit, oziq-ovqat va ishlab chiqarish mahsulotlarining turli xil sanoat chiqindilari hamda og‘ir va zaharli metall ionlari bilan ifloslanishi ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega bo‘lgan kuchli ekologik muammolarni keltirib chiqarayotganligi sababli, ularni kelib chiqishini oldini olish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Sanoatda og‘ir va zaharli metall ionlaridan oqilona foydalanish hamda ularning mikromiqdorini aniqlashda ekspress, arzon va selektiv bo‘lgan yangi uslublarni ishlab chiqish hamda nazorat qilish bo‘yicha keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Olib borilayotgan dasturiy chora-tadbirlar asosida tabiiy suvlar, rudalar, sanoat chiqindi mahsulotlari tarkibidan Ni(II) va Cu(II) ionlarini miqdoriy aniqlash uslublarini ishlab chiqish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda olib borilayotgan tadqiqotlarda og‘ir va zaharli metall ionlarini eritma holatida hamda qattiq fazali immobillangan shaffof jelatina plyonkasi yordamida spektrofotometrik aniqlash usullari bilan tabiiy va oqova suvlar tarkibidan aniqlash, rudalar va sanoat chiqindilaridan ajratib olish, ularning tarkibini aniqlashning tanlab ta’sir etuvchan va yuqori sezgir usullarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Dunyoning yetakchi olimlari tomonidan og‘ir va zaharli metall ionlarini, jumladan, Ni(II) va Cu(II) ionlarini aniqlashda yangi kompleks hosil qiluvchi funksional analitik guruhlari saqlagan organik analitik reagentlarni qo‘llash orqali yuqori sezgirlikni, selektivlikni va ekspresslikni oshirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Mamlakatimizda kimyo sanoatida yangidan-yangi turdagi materiallar ishlab chiqarish yo‘nalishida ma’lum natijalarga erishildi, jumladan mahalliy bozorni import o‘rnini bosuvchi kimyoviy reagentlar bilan ta’minlash sohasida keng ko‘lamli tadbirlar amalga oshirildi. Ta’kidlash joizki, Respublikamizda, innovasion texnologiyalarni tadbir etish orqali sanoat ob’ektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi va atrof muhitini muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida<sup>1</sup> «Mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida, yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zgartirishga» qaratilgan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada respublikamizda nikel va mis kabi og‘ir va zaharli metall ionlarining kimyo, aviasiya, tibbiyot, xalq xo‘jaligi sanoatlarida keng qo‘llanilganligi sababli, ularni aniqlashning zamonaviy, ishonchli, ekspress va iqtisodiy jihatdan arzon usullarini yaratish muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-sonli Farmoni va 2019-yil 3-apreldagi «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4265-sonli Qarori ijrosini ta’minlashda hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni

---

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasi Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi Farmoni

amalga oshirishda ushbu dissertasiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. “Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoni o‘rganganlik darajasi:** Bu sohada ishlariga eng ko‘p havolalar qilingan quyidagi chet el va MDH davlatylari olimlari: Miao Wang (Xitoy), E.G.Vergara (Angliya), Al-Da‘amy (Iroq), Jibran Iqbal (Xitoy), R.S.Lokhande (Xindiston), R.A.Nalawade (Xindiston), Y.Liu (Xitoy), Ya Bazel, M.H.Youcef, M.S.Jeoung, H.S Choi (Yaponiya), S. Z.Mohammadi, S.M. Yassen va boshqalarni keltirib o‘tish mumkin. MDH mamlakatlarining bir qator olimlari: Yu.A.Zolotov, V.Ivanov, F.M.Chyragov, A.N.Vernigora Ali Zalov, S.A.Zabolotnix, A.V.Bulatov, Yu.B.Elchisheva, S.B.Savvin, N.A. Gavrilenko, N. V.Volkova, I.F.Dolmanova, N.A.Verdizade (Azarboyjon), L.A.Sarafanova, S.G.Dmitrienko (Ukraina) va boshqalar og‘ir va zaharli metall ionlarini, shuningdek nikel(II) va mis(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlashning rivojlantirilishiga o‘zlarining salmoqli hissalarini qo‘shganlar.

Ularning safidan zamonaviy o‘zbek olimlari ham keng o‘rin olgan, ayniqsa, akademik Sh.T.Tolipov tomonidan Respublika va O‘rta Osiyoda analitik kimyogarlar maktabi yaratildi va uning a‘zolari o‘z ishlarini og‘ir va zaharli metall ionlarini optik va elektrokimyoviy analiz metodlariga, fotometrik, spektrofotometrik, kompleksonometrik, inversion-voltamperometrik, amperometrik va boshqa analiz metodlariga bag‘ishladi, V.A.Xadeyev, A.K.Jdanov, R.X.Djiyanbayeva, N.B.Babayev, A.T.Tashxodjaye, T.Q.Xamraqulov, A.M.Gevorgyan, K.Z.Raxmatullayev, Ye.L.Krukovskaya, I.P.Shesterova, L.V.Chaprasova, X.X.To‘rayev, O.F.Fayzullayev, N.T.Turabov, Z.A.Smanova, A.M.Nasimov, E.Abduraxmanov va boshqalar nomlari shu yo‘nalishning bevosita rivojlanishi bilan bog‘liq. Yuqoridagilarning barchasi yangi organik analitik reagentlar bilan bog‘liq, amaliyotda ekologik va analitik maqsadlarda Ni(II) va Cu(II)ni spektrofotometrik aniqlashda ilmiy – tadqiqot ishlari uchun keng imkoniyatlar yaratilishidan dalolat beradi.

**Dissertatsiya mavzusining bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi.**

Dissertasiya tadqiqoti Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F7-84 “Kimyoviy sensorlarning yangi avlodi uchun gazsezgir materiallarni yaratishning nazariy asoslarini tadqiq qilish” mavzusidagi (2016-2020 yy) fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqot maqsadi** Ni(II) va Cu(II) ionlarini eritma holatida va qattiq fazali immobillangan shaffof jelatina plyonkasi yordamida spektrofotometrik aniqlash uslublarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari** Ni(II) va Cu(II) ionlarini mikro- va makromiqdorlarini aniqlashda yangi azoreagent 4-gidroksi-3-(4-sulfonato-1-naftilazo)-1-naftalinsulfonatning dinatriyli tuzidan (4-GOKSNN) foydalanish va u bilan rangli komplekslar hosil bo‘lishining eritmada va immobillangan shaffof jelatina plyonkasi sirtida optimal sharoitlarini aniqlash;

4-GOKSNN va uning metall ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining fizik-kimyoviy xossalari, spektral tavsiflari, haqiqiy molyar soʻndirish koeffisienti, kompleks birikmalarning tarkibiy mollar nisbati va muvozanat konstantalarini aniqlash;

darajalangan grafikning toʻgʻri chiziq tenglamasi va tekshirilayotgan analitik reaksiyalarning selektivligini turli xil ionlar ishtirokida eritmada va immobillangan jelatina plyonkasi asosida tekshirish hamda sunʼiy binar, murakkab aralashmalar, rudalar, standart sanoat qotishmalari va biologik obyektlar hamda real tabiiy obʼyektlar tarkibidan Ni(II) va Cu(II) ionlarini aniqlash;

ishlab chiqilgan metodikalarning toʻgʻriligi va qayta tiklanuvchanligi “kiritildi-topildi” metodi yordamida aniqlash, Ni(II) va Cu(II) ionlarini quyi aniqlanish chegarasini oʻrnatish hamda olingan natijalarini metrologik baholash;

Ni(II) va Cu(II) ionlarini eritmada va qattiq fazali immobillangan shaffof jelatina plenkasi yordamida yangi azo reagent 4-GOKSNN bilan spektrofotometrik aniqlash uslublarini tavsiya qilish;

ishlab chiqilgan uslublarni laboratoriya sharoitlarida sinovdan oʻtkazish va real obyektlar tarkibidan Ni(II) va Cu(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlashning yangi uslublarini ishlab chiqish hamda turli murakkab obyektlar va materiallar analizining ratsional yechimlarini izlashda qoʻllash;

**Tadqiqotning obyekti** sifatida turli xil tarkibli sunʼiy aralashmalar sanoat qotishmalarining standart namunalari, biologik obyektlar va polimetall ruda namunasi tanlangan.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida Ni(II) va Cu(II) hamda ularning atrof-muhit obyektlaridagi birikmalari hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari:** tadqiqot jarayonida fotometrik, spektrofotometrik, qattiq fazali fotometrik, potensiometrik, IQ-,  $^1\text{H-NMR}$ -spektroskopiyasi, Raman spektroskopiyasi, kvant-kimyoviy va olingan natijani statistik qayta hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor yangi selektiv organik analitik reagent 4-GOKSNN ning molyar soʻndirish koeffisienti va dissosilanish konstantasi aniqlangan;

spektrofotometrik uslub yordamida Ni(II) va Cu(II) ionlarini 4-GOKSNN bilan kompleks hosil qilish reaksiyalarining haqiqiy molyar soʻndirish koeffisienti va muvozanat konstantalari hisoblab topilgan;

ilk bor Ni(II) va Cu(II) ionlarini 4-GOKSNN bilan eritmada va immobillangan jelatina plyonkasi yordamida aniqlash uslublari yaratilgan;

ishlab chiqilgan Ni(II) va Cu(II) ionlarini spektrofotometrik aniqlash usulining sunʼiy model, murakkab tarkibli aralashmalar, real tabiiy obyektlar, hamda sanoat qotishmalarining standart namunalari tarkibidan aniqlashning selektivligi oshganligi isbotlangan;

ilk bor jelatina plyonkasi asosidagi qattiq fazaga immobillangan 4-GOKSNN ning Ni(II) va Cu(II) ionlarini aniqlashda analitik sensor sifatida qoʻllash orqali konsentrlash va aniqlashni birgalikda bajarish imkoniyati yaratilgan hamda aniqlash uslublarining metrologik tavsiflari: tanlab taʼsir etuvchanlik, aniqlik, natijalarning ishonchlilik ehtimolligi va xatolik bir necha baravarga kamaytirilganligi isbotlangan.

### **Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Ni(II) va Cu(II) ionlarini 4GOKSNN reagenti bilan kompleks hosil bo'lish reaksiyalarida optimal sharoitlari; muhit kislotaliligi, metall ionlari va reagent-ning konsentratsiyasi va boshqa analitik hamda metrologik tavsiflari aniqlangan;

Ni(II) va Cu(II) ionlarini binar va yanada murakkab aralashmalarda, sanoat namunalaridan, tabiiy suvlar, minerallar va boshqa ob'yektlar tarkibidan 4-GOKSNN reagenti bilan aniqlashning yuqori sezgir, ekspress, iqtisodiy jihatdan arzon, tanlab ta'sir etuvchan metodikalari ishlab chiqilgan;

Ni(II) va Cu(II) ionlarini 4-GOKSNN reagenti bilan binar, sun'iy aralashma va murakkab bo'lgan real ob'yektlar hamda alyuminiy va mis asosidagi sanoat qotishmalari tarkibidan selektiv spektrofotometrik aniqlash uslubi yaratilgan.

**Olingan natijalarining ishonchligi.** fotomeriya, spektrofotometriya, potensiometriya, IQ-, <sup>1</sup>H-NMR hamda Raman spektroskopiyasi kabi zamonaviy fizik-kimyoviy uslublar hamda kvant-kimyoviy hisoblashlar bilan isbotlangan. Xulosalar matematik statistika uslublari bilan qayta hisoblangan tajriba natijalari tahlil qilingan.

### **Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.**

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli ob'ektlar tarkibidagi Ni(II) va Cu(II) ionlariga nisbatan tanlab ta'sir etuvchanlik oshganligi ko'rsatilganligi bilan asoslanadi. Shuningdek ishda 4-GOKSNN ning Ni(II) va Cu(II) bilan kompleks birikmasining haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsiyenti mos ravishda  $2,5 \cdot 10^4$  va  $4,8 \cdot 10^4$  ga tengligi, Sendel bo'yicha sezgirligi Ni(II) ionlari uchun 0,01336 mkg/sm<sup>2</sup>, Cu(II) ionlari uchun 0,00651 mkg/sm<sup>2</sup> ni tashkil etishi, quyi aniqlanish chegarasi Ni(II) ionlari uchun 0,013 mkg/25 sm<sup>3</sup>, Cu(II) ionlari uchun 0,096 mkg/25 sm<sup>3</sup> ni tashkil etishi aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Ni(II) va Cu(II) ionlarini binar va murakkab model aralashmalar, tabiiy suvlar, alyuminiy va mis asosidagi sanoat qotishmalari hamda ba'zi biologik obyektlardan ruxsat etilgan miqdorgacha va undan ancha past bo'lgan konsentratsiyalarini spektrofotometrik va qattiq fazali spektrofotometrik aniqlashga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Nikel(II) va mis(II) ionlarini 4-GOKSNN bilan spektrofotometrik aniqlash uslublarini ishlab chiqishda olingan ilmiy natijalar asosida:

ishlab chiqilgan spektrofotometrik aniqlash uslublari "Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ Markaziy ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida sanoat chiqindi va oqova suvlari tarkibidan Ni(II) va Cu(II) ionlarini aniqlash uchun joriy qilingan (Navoiy kon-metallurgiya kombinati AJning 2024-yil 09-apreldagi 23/01-01-07/153-son ma'lumotnomasi). Natijada, sanoat chiqindi va oqova suvlari tarkibidan nikel(II) va mis(II) ionlarini aniqlash imkonini bergan;

Ni(II) va Cu(II) ionlarini mikromiqdorini real obyektlar tarkibidan spektrofotometrik aniqlash uslublari "Dehqonobod kaliy zavodi" AJda amaliyotga joriy etilgan ("Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ning 2024-yil 20-martdagi 02-4/1115-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqilgan metodikalar tabiiy suvlar tarkibidan Ni(II) va Cu(II) ionlarini mikromiqdorini aniqlashda tanlab tasir

etuvchanligini, sezgirligini, ekspressligini, aniqlikni oshirish hamda analitik va metrologik tavsiflarini yaxshilash imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 11 ta, jumladan 4 ta xalqaro va 7 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta ilmiy maqola, jumladan 2 ta Respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiya ishining hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish qismida** dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyligi asoslangan, maqsad va vazifalar, tadqiqot obyektlari va predmetlari berilgan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etish istiqbollari bo'yicha xulosa qilingan hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Ni(II) va Cu(II) ionlarini optik va boshqa fizik-kimyoviy aniqlash usullari”** deb nomlanuvchi birinchi bobida adabiyot sharxlari keltirilgan bo'lib, unda Ni(II) va Cu(II) ionlarini suvli va qattiq fazali muhitlarda har xil xususiyatga ega bo'lgan turli reagentlar yordamida optik va boshqa metodlar bilan aniqlashga bag'ishlangan xorijiy va Respublika nashrlarida keltirilgan ishlar bayon etilgan. Chiqindi, texnologik, ichimlik, tabiiy va boshqa obyektlarda nikel va misning miqdorlarini atrof-muhit obyektlari, organizm, suvlar va sanoat namunalari nazorat qilish muhimligi, olingan natijalarning tahlili natijasida dissertatsiya ishining dolzarbligi, maqsadi va vazifalari asoslangan.

Dissertatsiyaning **“Kompleks hosil bo'lishining optimal sharoitlarini o'rnatish, reagent va uning metallokomplekslarini spektrofotometrik tavsiflarini aniqlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida standart va ishchi eritmalarni tayyorlash metodlari keltirilgan, reagentni identifikatsiyalash va metall ionlarini 4-GOKSNN bilan sifat reaksiyalari o'tkazilgan, kompleks hosil bo'lish reaksiyalarini optimal sharoitlari va spektrofotometrik tavsiflari tanlangan, komplekslarning tarkibiy mollar nisbati o'rnatilgan, 4-GOKSNN reagenti bilan Ni(II) va Cu(II) komplekslarini sezgirligi hamda turli xil konstantalari metodida aniqlangan.


Dissertatsiyaning **“4-GOKSNN va uning Ni(II), Cu(II) ionlari bilan komplekslarining fizik-kimyoviy tadqiqoti va ularning tahlili”** deb nomlangan uchinchi bobida komplekslarining tarkibiy mollar nisbatini aniqlash, komplekslarning spektral tavsifi, Komar usuli yordamida 4-GOKSNN ning

dissotsilanish konstantasi va molyar soʻndirish koeffitsientini aniqlash natijalari, komplekslarning haqiqiy molyar soʻndirish koeffitsiyenti va muvozanat konstantasini hamda zaryadini aniqlash, 4-GOKSNN molekulasi reaksiya qobiliyatini kvant-kimyoviy hisoblash, 4-GOKSNN bilan immobillangan plyonkada Cu(II) ionining hosil qilgan kompleksning spektral tavsifi, darajalangan grafik natijalarini kichik kvadratlar usuli yordamida matematik statistik qayta hisoblash, Cu(II) ionlarini 4-GOKSNN reagenti yordamida begona ionlar ishtirokida qattiq fazali fotometrik aniqlash, 4-GOKSNN tuzilishini  $^1\text{H-NMR}$  va  $^{13}\text{C-NMR}$  spektrlari yordamida tahlil qilish, IQ va Raman spektroskopiyasi natijalari va tahlillari, darajalangan grafik natijalarini kichik kvadratlar usuli yordamida matematik statistika usulida qayta ishlash natijalari, Ni(II) va Cu(II) ionlarini quyi aniqlanishning chegarasini aniqlash ( $Q_{\min}$ ), aniqlash usulining toʻgʻriligi va qayta tiklanuvchanligini tekshirish, hamda begona ionlar ishtirokida aniqlash natijalari shuningdek, uchinchi bobning oxirida olingan natijalar asosida xulosa qilingan.

Spektrofotometrik tadqiqotlar uchun organik analitik reagent sifatida 4-GOKSNNning suvli eritmasidan foydalanilgan. Tadqiqotlar natijasida 4-GOKSNNning optimal nur filtrini  $\lambda_{\max} = 510$  nm, uning Ni(II) bilan kompleksi  $\lambda_{\max} = 600$  nm da va Cu(II) bilan kompleksi  $\lambda_{\max} = 435$  nm da yuqori optik zichlik (OZ)ni namoyon qilishi aniqlangan (1-rasm). Eritmaning muhiti Ni(II) kompleksi uchun  $\text{pH} = 8,12 \div 9,39$  oraligʻida, Cu(II) kompleksi uchun  $\text{pH} = 5,87 \div 6,31$  oraligʻida yuqori OZni namoyon etishi aniqlangan hamda tadqiqotlar uchun  $\text{pH} = 8,40$  Ni(II) uchun va  $\text{pH} = 5,95$  Cu(II) uchun tanlab olingan (2-rasm).




**1-rasm. 4-GOKSNN, uning Ni(II) va Cu(II) ionlari bilan hosil qilgan komplekslarining optimal nur yutish toʻlqin uzunligini aniqlash grafigi**



**2-rasm. Ni(II) va Cu(II) ionlarining 4-GOKSNN bilan kompleksi optik zichlik qiymatining eritma muhiti (pH) ga bogʻliqligi grafigi**

Olingan natijalar asosida  $50,0 \text{ mkg/sm}^3$  Ni(II) ni kompleks bilan toʻla bogʻlash uchun  $1,8 \text{ sm}^3$ ,  $50,0 \text{ mkg/sm}^3$  Cu(II) ni kompleks bilan toʻla bogʻlash uchun  $1,9 \text{ sm}^3$   $0,05\%$  li 4-GOKSNN eritmasi yetarli ekanligi aniqlangan. Kompleks birikma optik zichligining qoʻshilayotgan metall ionlari miqdoriga bogʻliqligi 3-rasmga keltirilgan natijalarga koʻra, Buger-Lamber - Ber qonuniga boʻysinish sohasi  $25,0 \text{ sm}^3$  eritmada Ni(II)  $5,0 \div 60$  mkg, Cu(II)  $5,0 \div 50$  mkg gacha boʻlgan oraliqda aniqlangan. Undan yuqori konsentratsiyada esa toʻgʻri chiziqli bogʻlanishdan chetlanish kuzatilgan. Ni(II) va Cu(II) ning 4-GOKSNN bilan hosil qilgan komplekslarini tanlangan optimal sharoitda yutulish spektrlari oʻlchandi hamda Sendel boʻyicha sezgirligi hisoblandi. Olingan natijalarga koʻra Sendel boʻyicha sezgirli ishlab chiqilgan uslublarning yuqori sezgirlikga ega ekanligini koʻrsatadi (1-jadval).




**3-rasm. OZ ning qo‘shilayotgan Cu<sup>2+</sup>(1) va Ni<sup>2+</sup>(2) miqdoriga bog‘liqligi**

Shaffof plyonkada immobillangan 4-GOKSNNning va Cu(II) ioni bilan kompleksining optimal nur yutilish to‘lqin uzunligini aniqlangan. Immobillanish jarayonida har bir molekula, tabiatiga ko‘ra ma‘lum to‘lqin uzunlikdagi nurni yutishini e‘tiborga olgan holda 4-GOKSNN ning plyonkada qattiq fazali spektrofotometriya yordamida 4-GOKSNN reagentining (1) va Cu(II) bilan kompleksining (2) plyonka sirtiga immobillanishi o‘rganildi (4-rasm).

**1-jadval**


**Ni(II) va Cu(II) komplekslarining eng muhim spektral tavsiflari**

Metall ionlari	Kompleks rangi	pH	Maksimal $\lambda$ , nm		$\Delta\lambda$	$C_{Me^{2+}}$ , mkg/25 sm <sup>3</sup>	$C_{Me^{2+}}$ , mol/dm <sup>3</sup>	$\bar{A}$	Sendel bo‘yicha sezgirlik mkg/sm <sup>2</sup>
			MeR <sub>2</sub>	HR					
Ni <sup>2+</sup>	Qizg‘ish jigarrang	8,40	600	510	90	50	$3,407 \cdot 10^{-5}$	0,176	0,01136
Cu <sup>2+</sup>	Qizg‘ish sariq	5,95	435	510	75	50	$3,147 \cdot 10^{-5}$	0,307	0,00651



**4-rasm. 4-GOKSNN (1) va uning Cu(II) bilan kompleksining (2) jelatina plyonkasi sirtiga modifikatsiyalanish sxemasi**

4-GOKSNN ning plyonkada immobillanishi va uning Cu(II) ionlari bilan hosil qilgan kompleksining plyonkada immobillanishini eng yuqori nur yutish sohasi aniqlandi (5-rasm).



**5-rasm. 4-GOKSNN bilan immobillangan plyonkaning va Cu(II) ionining 4-GOKSNN bilan immobillangan plyonkada hosil qilgan kompleksning optimal nur yutish to‘lqin uzunligi grafigi**

Olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, plyonkaning reagent bilan immobillanishi pH=5,23 da va nur yutishi  $\lambda_{max}=520$  nm da, shuningdek, Cu(II) ionining immobillangan plyonkada pH=3,95 da kompleksini optimal hosil qildi

kompleksning nur yutishi maksimumi  $\lambda_{\max}=630$  nm ga teng bo'ldi. Qattiq fazali plyonkada hosil bo'lgan kompleks birikma tarkibini Izomolyar seriyalar usullari yordamida M:R=1:2 ekanligi aniqlandi.

Darajalangan grafik natijalarini kichik kvadratlar usuli yordamida matematik statistik qayta hisoblash amalga oshirildi:

$$a = \frac{\sum X_i^2 \cdot \sum Y_i - \sum X_i \cdot \sum X_i Y_i}{n \cdot \sum X_i^2 - (\sum X_i)^2} = \frac{16250 \cdot 1,249 - 390 \cdot 50,02}{12 \cdot 16250 - (390)^2} = 0,018378$$

$$b = \frac{n \cdot \sum X_i Y_i - \sum X_i \cdot \sum Y_i}{n \cdot \sum X_i^2 - (\sum X_i)^2} = \frac{12 \cdot 50,02 - 390 \cdot 1,249}{12 \cdot 16250 - (390)^2} = 0,002637$$

Cu(II) ionini aniqlash uchun to'g'ri chiziq tenglamasi  $Y_i = a + bX_i = 0,018378 + 0,002637 \cdot X_i$  ga teng bo'lgan.

Mis(II) ionlari 4-GOKSNN bilan pH=3,95 da barqaror kompleks birikma hosil qiladi. Bunday muhitda bir necha ionlar Cu(II) ionlarini aniqlashga halaqit berish mumkin. Shuning uchun uslubning tanlab ta'sir etuvchanligini o'rganildi. Natijalariga ko'ra 50 mkg mis(II) ionlarni aniqlashga Hg<sup>2+</sup> (1:20), Zn<sup>2+</sup>, Cd<sup>2+</sup> (1:10), Co<sup>2+</sup> (1:5), EDTA va SCN<sup>-</sup> (1:3) nisbatda halaqit beradi. Ushbu ionlar birgalikda kelganda niqoblovchilar sifatida, Pb<sup>2+</sup>, Cd<sup>2+</sup> va Hg<sup>2+</sup> ionlarini SO<sub>4</sub><sup>2-</sup>, SO<sub>3</sub><sup>2-</sup> bilan, Co<sup>2+</sup> ionini NH<sub>4</sub>OH, S<sub>2</sub>O<sub>3</sub><sup>2-</sup> (1:50) bilan niqoblash orqali Cu(II) ionini aniqlash mumkinligi tasdiqlangan.

## 2-jadval

**Sun'iy aralashma tarkibidan Cu(II) ionini bog'lovchi reagentlar qo'shilgan holda qattiq fazali spektrofotometrik aniqlash natijalari (C<sub>Cu<sup>2+</sup></sub>= 50,0 mkg KFK-3,  $\ell=0,10$  sm,  $\lambda_{\max}=630$ nm, pH =3,95, n=5, P=0,95, t<sub>pk</sub>=2,78)**


Sun'iy aralashma tarkibi (Me:Cu)	$\bar{A}$	Topilgan Cu <sup>2+</sup> mkg $X_i$	$\bar{X}_i$	$X_i - \bar{X}_i$	$(X_i - \bar{X}_i)^2$	S	S <sub>r</sub>	$\bar{X}_i \pm \Delta X$
K <sup>+</sup> , Na <sup>+</sup> , NH <sub>4</sub> <sup>+</sup> , Mg <sup>2+</sup> , (100); Al <sup>3+</sup> (10); Ca <sup>2+</sup> (5); Cl <sup>-</sup> , SO <sub>4</sub> <sup>2-</sup> (150); F <sup>-</sup> (1); Co <sup>2+</sup> (0.5); Ba <sup>2+</sup> (500); Cr <sup>3+</sup> (15); Fe <sup>3+</sup> (50); Ni <sup>2+</sup> (0.5);	0,150 0,151 0,151 0,149 0,151	49,91 50,29 50,29 49,91 50,29	50,06	0,15 0,23 0,23 -0,15 0,23	0,0225 0,0529 0,0529 0,0225 0,0529	0,02257	0,0045	50,06±0,28

Ma'lumki, mis ionlarining turli xil atrof-muhit obyektlari va sanoat namunalari tarkibida uchrashi, uning mikromiqdorlarini aniqlash va nazorat qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu sababli, ishlab chiqilgan uslub yordamida Cu(II)ni sun'iy aralashma tarkibidan qattiq fazali sorbsion-fotometrik aniqlash amalga oshirilgan (2-jadval). Tanlangan optimal sharoitlarga asosan Cu(II) ionini sun'iy aralashmalar tarkibidan qattiq fazali spektrofotometriya yordamida bog'lovchi reagentlar qo'shilmasdan aniqlash amalga oshirilib, qayta takrorlanuvchan natijalar olindi, bunda nisbiy standart chetlanish (Sr) 0,0045 dan oshmagan.


Ishda olingan 4-GOKSNN bilan immobillangan jelatina plyonkasi asosidagi sensorlarning qayta qo'llanilish imkoniyatlari spektrofotometrik uslub yordamida o'rganildi. Buning uchun plyonka sirtidagi hosil bo'lgan Cu(II) kompleksning immobillangan plyonkaga nisbatan OZ lari KFK-3 da  $\lambda=630$  nm, pH=3,95,  $\ell=0,10$  sm da o'lchandi hamda pH qiymatlari 1,03; 2,06; 3,17; 3,38 bo'lgan biferitritlarida desorbsiya jarayoni o'tkazilgan. Olingan natijalardan pH qiymati

1,03 bo'lgan eritmada plyonkadagi kompleks tarkibidagi mis(II) ionlari plyonka sirtidan eritmaga to'liq desorbsiya bo'lishi kuzatilgan. Plyonka 6 martagacha qayta desorbsiya qilinganida OZ qiymati qayta takrorlanishi va keyingi tadqiqotlarda pasayishi kuzatilgan. Shunga ko'ra yaratilgan sensorlarni 6 martagacha qayta ishlatish mumkinligi aniqlangan. Yuqoridagilarga asosan yaratilgan immobillangan-4-GOKSNNni vizual-test sensorlar sifatida ham ishlatish mumkinligi to'g'risida xulosalar berilgan.

Kompleks tarkibini aniqlashni Asmusning to'g'ri chiziqlar usuliga muvofiq ta'sirlashuvchi komponentlarning stexiometrik nisbatlarida tekshirildi va  $(\ell/V)^n = \ell/A$  bog'liqlik grafigi tuzildi. Bu bog'liqlik asosida faqat "n" ning qiymati haqiqiy qiymat uchun to'g'ri chiziqni tashkil etishi aniqlangan (6-7-rasmlar).



**6-rasm. Nikel(II) ning kompleks birikmasi tarkibini Asmusning to'g'ri chiziqlar usuli yordamida aniqlash**



**7-rasm. Mis(II) ning kompleks birikmasi tarkibini Asmusning to'g'ri chiziqlar usuli yordamida aniqlash grafigi**

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, Cu:R va Ni:R uchun to'g'ri chiziq 1:2 mollar nisbatiga to'g'ri kelgan. Shunga ko'ra Izomolyar seriyalar metodi hamda, Asmusning to'g'ri chiziqlar metodiga ko'ra Ni:R=1:2 hamda Cu:R=1:2 nisbatda deb xulosa qilish mumkin.

Cu(II)ni 4-GOKSNN bilan hosil qilgan kompleksining haqiqiy molyar so'ndirish koeffitsiyenti MSK 48077 va muvozanat konstantasini  $K_{muv}=28 \cdot 10^{-5}$  ekanligi aniqlangan.


4-GOKSNN reagentning  $^{13}\text{C}$ -NMR spektrlari o'lchandi, unga ko'ra 129,522 va 176,973 ppm singlet signallar diazo guruhdagi -C-N- bog'lariga tegishli, 136,150 ppm singlet signali -C-OH bog'iga, 131,187 va 133,293 ppm singlet signali -C-S bog'iga va diazo guruhining chap tomonidagi 119,324; 123,154; 125,794 (2C), 126,477, 132,490 hamda diazo guruhining o'ng tomonidagi 110,313; 125,794; 126,477 (3C), 127,335; 127,540; 128,526 ppm lar bo'lgan bir nechta signallar aromatik halqalarning 15 uglerodiga tegishliligi xulosa qilindi. 4-GOKSNN bir qancha metallar bilan rangli kompleks hosil qilish xususiyatiga ega bo'lib, -OH, -N=N- guruhlarining hisobiga xelat siklik birikmani hosil qiladi. Hosil bo'lgan koordinatsion bog'dagi elektronlarning kuchsiz delokalizatsiyasi hisobiga kvaziaromatik sikl yuzaga kelgan.

Reagentning IQ-spektrida  $3421,61 \text{ cm}^{-1}$  sohada -OH guruhiga tegishli bo'lgan intensiv yutilish maksimumini ko'rish mumkin. Shuningdek  $1497,14 \text{ cm}^{-1}$  sohada diazoguruhiga (-N=N-) tegishli,  $1276,3 \text{ cm}^{-1}$  sohada aromatik halqadagi C=C

bog‘iga tegishli, 1043,92; 1017,88  $\text{cm}^{-1}$  da esa sulfoguruh ( $\text{SO}_3^{2-}$ ) yutilish maksimumlarini kuzatilgan.

Bu  $-\text{OH}$  guruhdagi O va metall orasida ionli bog‘ hosil bo‘lganidan darak beradi. Natijada hosil bo‘lgan yangi M-O bog‘ining yutilish maksimumi esa 406,68  $\text{cm}^{-1}$  sohada kuzatilgan.

Shuningdek, 1497,14  $\text{cm}^{-1}$  sohada  $-\text{N}=\text{N}-$  bog‘iga tegishli bo‘lgan cho‘qqining intensivligi juda pasayganligini (1407,67  $\text{cm}^{-1}$ ) ko‘rish mumkin. Bu  $-\text{N}=\text{N}-$  guruhning elektrostatik potentsiali quyi bo‘lgan azot atomi bilan metall orasida donor-akseptor bog‘ yuzaga kelganidan dalolat beradi. Olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko‘ra IQ-, Raman spektri, kvant-kimyoviy tadqiqotlar, Asmusning to‘g‘ri chiziq usuli, Izomolyar seriyalar usuli, zaryadni aniqlash natijalariga ko‘ra, Ni(II) va Cu(II) ning 4-GOKSNN



**8-rasm. Ni(II) va Cu(II) ning 4-GOKSNN bilan kompleksining taxminiy tuzilishi formulasi**

reagenti bilan hosil qilgan kompleks birkmasining tuzilishi quyidagicha 8-rasmdagidek tuzilishi belgilandi.

Reagentning eng muhim ko‘rsatkichlaridan biri bo‘lgan analizda ishlatilish imkoniyatini va uslubning tanlab ta‘sir etuvchanligini aniqlash maqsadida begona ionlarning Ni(II) va Cu(II) ionlarini aniqlashga ta‘sirini tadqiqotda aniqlangan. Aniqlash umumiy metodika asosida optimal sharoitlarda o‘tkazildi. Natijalarning ko‘rsatishicha, 4-GOKSNN reagenti bilan 10,0 mkg  $\text{Ni}^{2+}$  ionlarini aniqlashda ishqoriy metallar  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Sn}^{2+}$ ,  $\text{NH}_4^+$ ,  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{NO}_3^-$ ,  $\text{F}^-$ , (1:1000) tegishli nisbatlarda halaqit bermaydi.  $\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Cd}^{2+}$ (1:1),  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Pb}^{2+}$  (1:5),  $\text{Ag}^+$ (1:8),  $\text{Hg}^{2+}$ (1:8),  $\text{Fe}^{3+}$ ,  $\text{Cr}^{3+}$ (1:10), EDTA,  $\text{SCN}^-$  (1:0,5) lari xalaqit beradi. Cu(II) ionlarini aniqlashga ishqoriy metallari  $\text{Al}^{3+}$ ,  $\text{Mg}^{2+}$ ,  $\text{Ca}^{2+}$ ,  $\text{Sn}^{2+}$ ,  $\text{Mn}^{2+}$ ,  $\text{NH}_4^+$ ,  $\text{Cr}^{3+}$ ,  $\text{F}^-$ ,  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{NO}_3^-$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{PO}_4^{3-}$  (1:1000) nisbatlarda halaqit bermaydi.  $\text{Fe}^{3+}$  (1:10),  $\text{Hg}^{2+}$ (1:8),  $\text{Zn}^{2+}$ ,  $\text{Pb}^{2+}$  (1:5),  $\text{Co}^{2+}$ ,  $\text{Cd}^{2+}$ (1:1), EDTA,  $\text{SCN}^-$  (1:0,5) lar olingan optimal sharoitlarda Cu(II) ionlarini aniqlashga halaqit beradi. Reagentning selektivligini oshirilishi kompleks hosil bo‘lishning optimal sharoitlarini to‘g‘ri tanlash bilan bog‘liq, bu esa OZ larni aniqlash metodining yuqori metrologik tavsiflariga erishish imkoniyatini bergan.

Turli xossali va miqdordagi kompleks hosil qiluvchi birikmalarning begona kationlari hamda xalaqit beruvchi anionlarning ta‘sirini aniqlash bo‘yicha natijalar Ni(II) va Cu(II) ionlarini individual eritmalarda 4-GOKSNN bilan aniqlash imkoniyatini berdi, bu esa ushbu ionlarni sun‘iy, binar, murakkab aralashmalar, tabiiy va sanoat ob‘ektlari tarkibidan aniqlashga asos bo‘lgan. Shuningdek, ushbu metal-larni turli tabiiy va sanoat obyektlariga o‘xshash namunalar tarkibidan yuqori metrologik tavsiflar va analitik parametrlar bilan eritmada va qattiq fazali optik shaffof sezgir sensorlar sirtida spektrofotometrik aniqlashda qo‘llashga asos bo‘lgan.

Dissertatsiyaning “Ni(II) va Cu(II) ionlarini aniqlashda ishlab chiqilgan spektrofotometrik uslublarini analitik qo‘llanilishi” deb nomlangan to‘rtinchi bobi Ni(II) va Cu(II) ionlarini 4-GOKSNN eritmasi bilan spektrofotometrik

aniqlashga bag'ishlangan. Ishlab chiqilgan spektrofotometrik metodikalar va olingan tajriba natijalari jahon adabiyotlarida ma'lum bo'lgan matematik statistikaning amaldagi qoida va amallari bilan qayta ishlangan. Ishlab chiqilgan metodikani sun'iy aralashma, tabiiy va sanoat obyektlari (tabiiy suvlar, qotishma, minerallar, ruda) va boshqa real tabiiy obyektlar hamda sanoat materiallari analiziga qo'llash mumkin. Ni(II) va Cu(II) ionlarini 4-GOKSNN bilan ishlab chiqilgan metodika yuqorida keltirilgan metodika bilan niqoblovchilar ( $Pb^{2+}$ ,  $Cd^{2+}$  va  $Hg^{2+}$  ionlarini  $Cl^-$ ,  $S_2O_3^{2-}$  bilan,  $Fe^{3+}$  ionlarini  $F^-$  bilan,  $Co^{2+}$  ionini  $NH_4OH$ ,  $S_2O_3^{2-}$ ,  $NO_2^-$  bilan va Cu(II) uchun  $F^-$ ,  $CH_3COO^-$ ) qo'shib turli tarkibli murakkab aralashma analizlarida foydalanilgan.

Olingan amaliy natijalar Ni(II) va Cu(II) ni tabiati va miqdorlari turlicha bo'lgan hamda alohida holda uchraganda halaqit bermaydigan va birga uchraydigan metallar ishtirokida tabiiy obyektlar va sanoat materiallari hamda xalaqit beruvchi ionlar ishtirokida aniqlash imkoniyatini yaratdi. Murakkab sun'iy aralashmalarni tayyorlashda Ni(II) va Cu(II) ni aniqlashga xalaqit beruvchi ionlar asos qilib olingan. Murakkab sun'iy aralashmalar analizi natijalari 3-jadvalda keltirilgan.

### 3-jadval

#### Ni(II) va Cu(II) ionlari miqdorini sun'iy aralashma tarkibidan aniqlash natijalari (KFK-3, $\ell=3,0$ sm, $n=5$ , $P=0,95$ , $t_{pk}=2,78$ )

Begona ionlarning nisbati $Ni^{2+}$ (50mkg)	$\bar{A}$	Topilgan $M^{2+}$ , mkg $\bar{X}$	$\bar{X} \pm \Delta X$	$X_i - \bar{X}$	$(X_i - \bar{X})^2$	S	$S_r$
Ni(II) ni aniqlash ( $C_{Ni^{2+}}=50,0$ mkg, $\lambda_{max}=600$ nm, pH =8,40,							
$Mg^{2+}$ (5)	0,152	48,50		-1,00	1,0000		
$Pb^{2+}$ (5)	0,154	49,17		-0,33	0,1089		
$Cl^-$ , $SO_4^{2-}$ (150)	0,155	49,50	$49,50 \pm 0,93$	0,00	0,0000		
$NO_3^-$ (500)	0,156	49,84		0,34	0,1156		
$Cd^{2+}$ (0,1)	0,158	50,51		1,01	1,0201	0,7491	0,0151
Cu(II) ni aniqlash ( $C_{Cu^{2+}}=30,0$ mkg, $\lambda_{max}=435$ nm, pH =5,95							
$K^+$ , $Na^+$ , $NH_4^+$ , $Zn^{2+}$ , (100);	0,189	30,17		0,00	0,0000		
$Al^{3+}$ (10); $Mg^{2+}$ (5); $Cl^-$ , $SO_4^{2-}$	0,188	30,00		-0,17	0,0289		
(150) $NO_3^-$ (500)	0,191	30,50	$30,17 \pm 0,33$	0,33	0,1089		
$Co^{2+}$ (0,5)	0,187	29,83		-0,34	0,1156		
	0,190	30,33		0,16	0,0256	0,2641	0,0088

Olingan natijalarga ko'ra, Ni(II) va Cu(II) ionlarini real obyektlar tarkibiga mos bo'lgan sun'iy aralashmalar tarkibidan spektrofotometrik aniqlash mumkinligi, ishlab chiqilgan metodikadagi nisbiy standart chetlanish ( $S_r$ ) ning Ni(II) uchun 0,0151 va Cu(II) uchun 0,0088 dan oshmasligi bilan asoslanadi, bu esa ishlab chiqilgan metodikaning ishonchliligini va to'g'riligini ko'rsatadi.

Ishlab chiqilgan Ni(II) va Cu(II) ionlarini 4-GOKSNN bilan sezgir va tanlab ta'sir etuvchan aniqlash metodi sanoat qotishmalarining standart namunalari (M99-5, M115-1 (N9, NX98), AK12MK 203-1, AK12MK 203-5) analiziga qo'llanildi.

